XALQ DEPUTATLARI XONOBOD SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

Xonobod shahar, Umarshayx Mirzo ko‘chasi 2-uy, Telefon 734-44-41 Email: khanabad@umail.uz

2023 - yil 22 - noyabr VI-52-110-1-30-K/23 Xonobod shahar hokimligi

Xonobod shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Andijon viloyati Xonobod shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarining yakuniy natijalari “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Xonobod shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan shahar hududiy komissiyasining 2023-yil 7-avgustdagi 07/08-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xonobod shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, kartografik chizmasi 2-ilovaga hamda chegara tavsifi 3-ilovaga muvofiq holda ko‘rib chiqililb viloyat hokimiga taklif kiritilsin.

3. Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (N.Latibjanova) mazkur qarorni Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashida ko‘rib chiqilishi uchun yuborsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar

Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Shahar Kengashi raisi **M.Tajibayev**

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2023-yil 22-noyabrdagi
VI-52-110-1-30-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xonobod shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlarini yakuniy natijalari to‘g‘risida


M A ‘ L U M O T

T/r	Shahar nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Xonobod shahar	49565	3717,76

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2023-yil 22-noyabrdagi
VI-52-110-1-30-K/23-son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Xonobod shahar ma'muriy-hududiy chegara

CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	***Qo'rg'ontepa tumani***
B dan D gacha	***Qirg'iziston Respublikasi***
D dan E gacha	***Qo'rg'ontepa tumani***
E dan F gacha	***Qirg'iziston Respublikasi***
F dan G gacha	***Qo'rg'ontepa tumani***
G dan A gacha	***Qirg'iziston Respublikasi***

Shartli belgilar

Xonobod shahri chegara chizmasi

1 Chegara chizig'ining nuqta raqamlari

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2023-yil 22-noyabrdagi
VI-52-110-1-30-K/23-son qaroriga
3-ilova

Andijon viloyati Xonobod shahar ma’muriy-hududiy chegarasi

TAVSIFI

Qirg‘iziston Respublikasi va Qo‘rg‘ontepa tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimda - shimoliy kenglik 40°49'35,088", sharqiy uzoqlik 72°58'48,696").*

A dan B gacha Qo‘rg‘ontepa tumani yerlari bilan 1 – 7 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 261 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 60 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2 - nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik 40°49'35,952", sharqiy uzoqlik 72°58'59,790").*

2 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni xisobga olgan holda 240 metr masofani o‘tadi, quruq chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 453 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 209 metr masofada tomorqa devoriga o‘tadi, keyin devor bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 132 metr masofada to‘g‘ri chiziq orqali temiryo‘lni kesib o‘tadi va ariq bo‘yida joylashgan 3 - nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°49'39,257", sharqiy uzoqlik 72°59'39,670"*)

3 - nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni xisobga olgan holda 560 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 4 - nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik 40°49'55,804", sharqiy uzoqlik 72°59'49,317"*).

4 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 434 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5 - nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°49'58,943", sharqiy uzoqlik 73°00'07,354"*)

5 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 466 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq

orqali zovurni kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi tomoni bilan 144 metr masofani o‘tadi, so‘ngra qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 567 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va ariq suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 460 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 6 - nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°50'08,530", sharqiy uzoqlik 73°00'32,489"*)

6 - nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 94 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 150 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 76 metr masofani o‘tib, quruq zovurga tutashadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan avval 154 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tadi, so‘ngra quruq chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 149 metr masofani o‘tib, zovurga tutashadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 139 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 78 metr masofani o‘tib 7 - nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik 40°50'22,952", sharqiy uzoqlik 73°00'20,975"*).

B dan D gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 7 – 8 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

7 - nuqtadan - 8 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkasiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi *(shimoliy kenglik 40°50'20,461", sharqiy uzoqlik 73°01'48,023").*

D dan E gacha Qo‘rg‘ontepa tumani yerlari yerlari bilan 8 – 45 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

8 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 64 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi tomoni bilan avval 51 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 177 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr masofani o‘tadi, so‘ng quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°50'11,950", sharqiy uzoqlik 73°01'49,269").*

9 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 523 metr masofani o‘tib, ko‘prik bo‘yida

joylashgan 10 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°50'07,422", sharqiy uzoqlik 73°02'10,662").*

10 - nuqtadan chegara chizig‘i Barpi kanali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3022 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 11 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°48'55,265", sharqiy uzoqlik 73°00'47,883").*

11 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 509 metr masofani o‘tib 12 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'40,716", sharqiy uzoqlik 73°00'38,471").*

12 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 231 metr masofani o‘tadi, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 670 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 13 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'30,856", sharqiy uzoqlik 73°01'10,348").*

13 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1139 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'15,691", sharqiy uzoqlik 73°00'31,287").*

14 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 602 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'56,640", sharqiy uzoqlik 73°00'29,921").*

15 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini to‘g‘ri chiziq orqali kesib o‘tib, Kampirrovot kanaliga tutashadi va janubiy-sharqiy kanal suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 94 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 16 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'54,482", sharqiy uzoqlik 73°00'32,759").*

16 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 24 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib Kampirrovot kanaliga tutashadi va kanal suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 755 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 17 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'39,982", sharqiy uzoqlik 73°00'59,141").*

17 - nuqtadan chegara chizig‘i Kampirrovot kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda avval 478 metr masofani o‘tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 507 metr masofani o‘tib, kanal

ko‘prigi bo‘yida joylashgan 18 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°47'17,909", sharqiy uzoqlik 73°01'25,547").*

18 - nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 11 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 1396 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 19 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'22,398", sharqiy uzoqlik 73°02'21,214").*

19 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 577 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 20 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'33,749", sharqiy uzoqlik 73°02'39,228").*

20 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 129 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 111 metr masofani o‘tib, suv quvuriga tutashadi va suv quvuri bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, soyga tutashadi va shimoliy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 103 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 21 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'28,269", sharqiy uzoqlik 73°02'48,301").*

21 - nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimiga qarshi tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 555 metr masofani, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 454 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 22 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 47' 40,032", sharqiy uzoqlik 73°03'10,969").*

22 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda quruq soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval 161 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 100 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va ariq suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 124 metr masofani, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni xisobga olgan xolda 57 metr masofada dala tuproq yo‘lini to‘g‘ri chiziq orqali kesib o‘tib, kanalga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanal suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 233 metr masofada kanal bo‘yida joylashgan 23 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'52,272", sharqiy uzoqlik*

73°03'23,243").

23 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanal suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 182 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan 106 metr masofani, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 29 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 24 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'51,668", sharqiy uzoqlik 73°03'34,122").*

24 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib soyga tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga barcha burilishlarini hisobga olgan holda 118 metr masofani o‘tadi, so‘ngra quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 98 metr masofani o‘tib, ekin yer tutashadi va ekin chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 71 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 120 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 25 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'46,921", sharqiy uzoqlik 73°03'44,323").*

25 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 554 metr masofani o‘tib kanal ko‘prigiga tutashadi, keyin qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib kanalga tutashadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 258 masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 26 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'26,263", sharqiy uzoqlik 73°03'27,909").*

26 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 321 metr masofani o‘tib 27 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'17,022", sharqiy uzoqlik 73°03'32,899").*

27 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 243 metr masofani o‘tib dam olish maskani sim to‘sig‘iga tutashadi. So‘ngra sim to‘siq bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 77 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 42 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yidagi 28 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'10,860", sharqiy uzoqlik*

73°03'41,488").

28 - nuqtadan chegara chizig‘i dam olish maskani sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 61 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yunalishda 48 metr masofada qir-adirliklarga o‘tadi va qir-adirliklarning so‘qmoqlari bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 261 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda avval 135 metr masofada soyni kesib o‘tadi, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 87 metr masofada soyni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 29 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'02,843", sharqiy uzoqlik 73°03'30,472").*

29 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 2082 metr masofani o‘tib, Kampirrovot kanali bo‘yida joylashgan 30 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'57,561", sharqiy uzoqlik 73°02'02,001").*

30 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Kampirrovot kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan avval 875 metr masofani o‘tadi, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1337 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 31 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'28,846", sharqiy uzoqlik 73°03'22,568").*

31 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 182 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 32 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'31,851", sharqiy uzoqlik 73°03'28,816").*

32 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 92 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'34,268", sharqiy uzoqlik 73°03'26,822").*

33 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 35 metr masofani o‘tib, Andijon suv ombori (Kampirrovot) sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 34 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'34,495", sharqiy uzoqlik 73°03'28,287").*

34 - nuqtadan chegara chizig‘i Andijon suv ombori (Kampirrovot) sim to‘siq bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yida joylashgan 35 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'35,583",*

sharqiy uzoqlik 73°03'33,315").

35 - nuqtadan chegara chizig‘i (Kampirrovot) Andijon suv ombori sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 457 metr masofani o‘tib 36 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'27,450", sharqiy uzoqlik 73°03'46,529").*

36 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning suv oqimiga qarshi tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib, qir-adirlik bo‘yida joylashgan 37 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'33,058", sharqiy uzoqlik 73°03'45,979").*

37 - nuqtadan chegara chizig‘i qir–adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 258 metr masofani o‘tib, Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) dambasi bo‘yida joylashgan 38 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'30,294", sharqiy uzoqlik 73°03'54,970").*

38 - nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) dambasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 235 metr masofani o‘tib, damba bo‘yida joylashgan 39 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'23,495", sharqiy uzoqlik 73°03'56,550").*

39 - nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) dambasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 205 metr masofani o‘tib, damba bo‘yida joylashgan 40 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'26,048", sharqiy uzoqlik 73°03'49,093").*

40 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avval janubiy yo‘nalishda 22 metr masofani, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 20 metr masofani o‘tadi va suv ombor to‘g‘onida joylashgan 41 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'25,243", sharqiy uzoqlik 73°03'48,304").*

41 - nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) to‘g‘oni bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 462 metr masofani o‘tib, suv ombor to‘g‘onida joylashgan 42 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°46'10,427", sharqiy uzoqlik 73°03'46,858").*

42 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda avval 91 masofani, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 54 metr masofani o‘tib, Andijonsoy kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 252 metr masofani

o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 43 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'10,670", sharqiy uzoqlik 73°03'32,001").*

43 - nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 270 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 44 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'03,835", sharqiy uzoqlik 73°03'26,065").*

E dan F gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 44 – 45 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

44 - nuqtadan - 45 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi *(shimoliy kenglik 40°46'01,764", sharqiy uzoqlik 73°01'03,843").*

F dan G gacha Qo‘rg‘ontepa tumani yerlari bilan 45 – 56- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

45 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 177 metr masofada ariqni kesib o‘tib, 4R-136 avtomobil bo‘yida joylashgan 46 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'07,430", sharqiy uzoqlik 73°01'02,998").*

46 - nuqtadan chegara chizig‘i 4R-136 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1537 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 47 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°45'57,065", sharqiy uzoqlik 72°59'59,582").*

47 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali 4R-136 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib M-41 avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1535 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 48 - nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°46'46,019", sharqiy uzoqlik 73°00'00,405").*

48 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 25 metr masofada M-41 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 49 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'46,342", sharqiy uzoqlik 72°59'59,442").*

49 - nuqtadan chegara chizig‘i 4R-248 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1477 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 50 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'04,072", sharqiy uzoqlik 72°59'01,068").*

50 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 433 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 51 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'16,844", sharqiy uzoqlik 72°58'53,721").*

51 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali Qoradaryo daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1162 metr masofada temiryo‘lni kesib o‘tib, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2020 metr masofani o‘tib, qirg‘oq bo‘yida joylashgan 52 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'03,367", sharqiy uzoqlik 72°56'56,518 ").*

52 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 210 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan
53 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'56,942", sharqiy uzoqlik 72°56'57,594").*

53 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 67 metr masofani o‘tib, beton ariqqa tutashadi va beton ariq suv oqimining o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 54 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'03,362", sharqiy uzoqlik 72°56'49,628").*

54 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 151 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 55 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'03,607", sharqiy uzoqlik 72°56'56,046").*

55 - nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 14 metr masofani, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 266 metr masofani o‘tib, 56 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'11,415", sharqiy uzoqlik 72°56'52,411").*

G dan A gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 56 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

56 - nuqtadan - 1 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi *(shimoliy kenglik 40°49'35,088", sharqiy uzoqlik 72°58'48,696").*